

Ish beruvchi: “Uzbekistan Airways” AJ aviakompaniyasi.

Bo‘linma: IT infratuzilma, raqamlashtirish va kiberxavfsizlik boshqarmasi.

Stavka: 1,00.

Oylik maosh: shtat jadvaliga muvofiq.

Talab etilgan ish tajribasi: 3 yildan kam emas.

Bandlik shakli: to‘liq bandlik.

Ish rejimi: to‘liq ish kuni.

Talablari:

- Fuqaroligi: O‘zbekiston Respublikasi.
- Tugallangan oliy ma‘lumot: IT mutaxassisliklari bo‘yicha.
- Lavozim vazifalarini bajarishga yetarli darajada o‘zbek, rus va ingliz tillarini bilish.
- Shu kabi lavozimda ish tajribasi – 3 yildan kam emas.
- Normativ-ma‘lumotnoma hujjatlar, ma‘lumotnomalarni tayyorlash asoslarini bilish.
- Axborot texnologiyalari va fuqarolik aviatsiyasi, shuningdek tegishli sohalarga oid atamalar va tushunchalarni bilish.

Vazifalari:

- Lavozim yo‘riqnomasida belgilangan talablarni bajarish, shuningdek:
- Ma‘lumot manbalari tizimlarini tahlil qilish;
- Axborot tizimlarida me‘yoriy-ma‘lumotlar bazalarini faol holatda saqlash;
- Ichki me‘yoriy hujjatlarga muvofiq, nomenklaturalarni kiritish bo‘yicha foydalanuvchilarning so‘rovlarini tahlil qilish va ekspertizadan o‘tkazish;
- Asosiy ma‘lumotlarni yangilash bo‘yicha foydalanuvchi so‘rovlarini qayta ishlash – yangi katalog elementlarini yaratish, mavjudlarini moslashtirish;
- Normallashtirish uchun qabul qilingan katalog yozuvlari tasnifini aniqlashtirish;
- Ma‘lumotnomalar yozuvlari nomlarini standartlashtirilgan shaklga keltirish;
- Toifalar (sinflar) shablonlariga muvofiq yozuv xarakteristikalarini to‘ldirish;

- Ma'lumotnoma ma'lumotlarini yuritish bo'yicha ishlarni tartibga soluvchi hujjatlar va yo'riqnomalarni ishlab chiqishda ishtirok etish, ma'lumotnoma ma'lumotlari bilan ishlashda foydalanuvchilarni texnik va uslubiy ta'minlash;
- Foydalanuvchilarga asosiy ma'lumotlarni boshqarish vositalaridan foydalanish bo'yicha ta'lim va maslahatlar berish;
- Aksiyadorlik jamiyatining xorijdagi tarkibiy bo'linmalari va vakolatxonalarida shartnoma majburiyatlarining bajarilishini nazorat qilish va boshqalar.
- Va b.

Ish sharoitlari:

- Rasmiy ishga joylashish.
- 5 kunlik ish haftasi, soat 09:00 dan 18:00 gacha.
- O'z vaqtida, barqaror ish haqi.
- Sinov muddati: 3 oy.

Asosiy ko'nikmalar:

- O'zbek tili - C2 - mukammal daraja
- Rus tili - C2 - mukammal daraja
- Ingliz tili - C1 - ilg'or daraja
- Normativ-ma'lumotnoma hujjatlar
- Ma'lumotnomalar, klassifikatorlar tuzish
- Savodli og'zaki va yozma nutq

Rezyume ko'rib chiqish uchun quyidagi elektron manzilga yuborilsin:

Alexey.Kirillov@uzairways.com

Erkin.Alimov@uzairways.com